

DISKURSIV TAHLIL ANTROPOSENTRIK TAHLIL YO'NALISHI SIFATIDA

*Qazaqova Nozima Abdulboqievna,
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Mazkur maqolada diskursiv tahlil, undagi asosiy kategoriyalarning mazmunini ochib berishga harakat qilingan. Jahon va o'zbek tilshunosligida diskursiv tahlil bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularda ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilingan. Diskursiv tahlilning zamonaviy tahlil yo'nalishi ekani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: diskurs, diskursiv tahlil, shaxs, pragmatolingvistika, so'zlovchi, tinglovchi, nutqiy akt, matn, dialogik diskurs.

ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ КАК НАПРАВЛЕНИЕ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

*Казакова Нозима Абдулбакиевна,
доцент НамГУ, доктор философии по филологическим наукам*

Аннотация: В данной статье сделана попытка раскрыть дискурсивный анализ, содержание в нем основных категорий. Проанализированы проведенные исследования дискурсивного анализа в мировой и узбекской лингвистике и выдвинутые в них идеи. Показано, что дискурсивный анализ является современным направлением анализа.

Ключевые слова: дискурс, дискурсивный анализ, личность, прагматлингвистика, говорящий, слушатель, речевой акт, текст, диалогический дискурс.

DISCURSIVE ANALYSIS AS THE DIRECTION OF ANTHROPOCENTRIC ANALYSIS

*Kazakova Nozima Abdulboqievna, Associate professor,
Namangan State University, doctor of philosophy in philology*

Annotation: this article attempts to reveal the content of discursive analysis, the main categories in it. In world and Uzbek linguistics, the studies carried out on discursive tahli and the ideas advanced in them are analyzed. It has been shown that discursive analysis is the direction of modern analysis.

Keywords: discourse, discursive analysis, personality, pragmalinguistics, speaker, listener, speech act, text, dialogical discourse.

Bugungi kunda ijtimoiy fanlar til va diskurs tushunchasiga ilmiy tahlilning metodologik asosi sifatida juda ko'p murojaat qilmoqdalar.[3.16] Falsafa, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, kognitiv fanlar shular jumlasidandir. Diskursiv tadqiqotlarda kim, qanday, nima maqsadda, kimga, nima haqida kabi savollar muhim. Ma'lumki, til aniq nutqiy muloqotda yashaydi. Mavhum lingvistik sistemada emas.

20-asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda ikki sohaning qo'shilishidan hosil bo'lgan sohalar paydo bo'la boshladi. Agar 20-asr boshlarida lingvistika eng avvalo til qanday tuzilgan? degan savol bilan shug'ullangan bo'lsa, uning ikkinchi yarida u qanday funktsiya bajaradi? Degani savol diqqat markaziga chiqa boshladi. Inson faktoriga e'tibor kuchaydi.

Jahon tilshunosligi taraqqiyotida o'z qarashlari bilan tub burilish yasagan Ferdinand de Sossyur nutqil faoliyatni til va nutqqa ajratib, tilshunoslikning semiotik fanlar qatoriga kirishini ta'kidlagan holda til va mazkur fanning tadqiqot obyekti sifatida tilning tizimlilik, bu tizimlilik qonuniyatlarini ochib berish markaziy o'rinda turishiga alohida e'tibor qaratgan edi. "Til o'zida va o'zi uchun" tamoyili asosida ko'plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirildi va tilshunoslikning chuqur ilmiy-nazariy asoslari yaratildi. Ammo fan doimo yangilik tarafdori. Ilm-fanda hamisha taraqqiyot charxpalagi aylanib, yangi-yangi qarashlar

va izlanishlar bilan insoniyat tamadduni boyib boradi hamda bu jarayonda yangi tushunchalar, terminlar paydo bo'ladi. Tilshunoslikda ilk taraqqiyot davrlarida leksikografiya, til lug'at boyliklarini jamlash va sharhlash, so'zlarni turkumlash, tillar tipologiyasi kabi masalalar dolzarb sanalgan va shu sohada arzirli asarlar yaratilgan bo'lsa, XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, so'ngra struktur tilshunoslik g'oyalari yetakchilik qildi. XX asr esa tilshunoslikning yangi o'zandagi rivojlanish pallasi bo'ladi. Bu davrda matn lingvistikasi, keyinroq diskurs tushunchalari iste'molga kirdi. XXI asrda esa tilshunoslikning masshtabi yana ham kengayib, sohalaaro sohalar rivojlanish davri boshlandi. Tilshunoslik tadqiq obyekting kengayib borayotgani bejiz emas. Chunki til va nutqsiz hech bir soha taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda antroposentrizm tushunchasi o'ta faol iste'molda bo'lmoqda. Biror terminning haddan ziyod qo'llanishi termin ifodalayotgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelishi mumkin. Lekin, shuni alohida ta'kidlash lozimki, antroposentrizm nafaqat tilshunoslikda, balki ko'plab ijtimoiy fanlarda, shu bilan birga, barcha fanlarda muhim ahamiyatga ega ekanligi absolyut haqiqat. Chunki har qanday fanning taraqqiyoti insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Har qanday soha aslida insonga yo'naltirilgandir. Aslida, inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni Homo sapiens turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo. Jamiyatda paydo bo'lgan yangi sohalar: kibernetika, gen injeneriyasi, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, nanotexnologiyalar kabilarning barchasi markazida bosh maqsad – inson farovonligi turishi aniq. Ijtimoiy fanlar bu borada insonshunoslik fanlari bo'lgani uchun ham asosiy o'rinda turadi.

Diskurs tushunchasi ham bevosita antroposentrik tilshunoslik bilan bog'liq termindir. Jahon tilshunosligida diskurs tushunchasi fanga amerikalik taniqli tilshunos Z.Xarris tomonidan olib kirilgan.

Lekin diskurs tahlili borasidagi qarashlar XX asrning 80-yillaridan faol tadqiq qilina boshlandi. Bu sohada Yevropa tilshunosligida Tyon van Deyk, Debora Shifrin kabilar rus tilshunosligida N.Arutyunova, L.Makarov, G.Skrebsova, o'zbek tilshunosligida Sh.Safarov, D.Xudoyberganova, L.Raupova, G.Toirova kabi olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Bugungi kunda tilshunoslikda diskurs, kommunikativ-diskursiv tahlil, diskurs nazariyasi kabi terminlar kun tartibiga chiqqan deyishimiz mumkin. Mavjud qarashlarda diskurs matnga qaraganda kengroq tushunchani ifodalashi ta'kidlandi. Diskurs terminining o'zi ham ikki xil: tor va keng ma'noda tushunilishi mumkinligi aytib o'tildi. Keng ma'noda tushunilganda diskurs turli xil kanallar orqali uzatiladigan, verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanadigan semiotik jarayonni ifodalaydi. Tor ma'noda esa faqat tilshunoslik obyekti sifatida qaraladi. Demak, semiotik nuqtayi nazardan, diskurs tilshunosligi bu til amaliyoti lingvistikasidir.

Diskurs yagona aniq real lingvistik obyektidir. Odamlar bir-birlari bilan, gaplar va, ayniqsa, morfema yoki fonemada gaplashmaydilar, balki diskurs orqali gaplashadilar. Bu diskursni boshqa lingvistik birliklardan ajratib turadi. Shuning uchun tilshunoslikning fan sifatida tabiiy qurilishi diskursni o'rganishdan boshlanishi kerak, deb hisoblaydi Kibrik.

Jahon tilshunosligida T van Deyk o'zining kommunikativ tilshunoslikka oid qarash va tadqiqotlari bilan munosib hissa qo'shib kelmoqda. **Tyon Adrianus van Deyk** (1943-yilda tug'ilgan) zamonaviy tilshunoslikka munosib hissa qo'shib kelayotgan niderland olimi. U matn nazariyasi, sotsiolingvistika va diskursiv tahlil bo'yicha bir qator asarlar yaratgan. Jumladan, olimning sotsiolingvistika va diskursiv tahlilga doir 250 dan ortiq ilmiy maqolalari, 60 ga yaqin monografiyalari mavjud. Xususan, olimning "Mafkura va diskurs" ("Ideology and discourse"), "Diskurs va hokimiyat: kommunikatsiya va tilda ustunlikning reprezentatsiyasi" ("Diskurs i vlast' Reprezentatsiya dominirovaniya v yazıke i kommunikatsii") kabi asarlarida diskurs, uning birliklari, diskursning keng va tor ma'nosi, boshqa birliklardan farqli jihatlari, diskurs va mafkura, irqchilik, siyosat kabi masalalar

bo'yicha qarashlarini bayon qiladi. U tanqidiy diskursiv tahlilning nazariy asoschilaridan biri sifatida tanqidiy diskurs sohalararo yo'nalish sifatida ko'p metodlarga ega. Masalan, diskursni o'rganish uchun grammatik tahlil, nutqiy va kommunikativ aktlarning pragmatic tahlili, ritorik tahlil, uslubiy tahlil, struktur tahlil, so'zlashuvning konversatsion tahlili, tovushlarning va visual materiallarning semiotik tahlili, shuningdek, kuzatish, etnografik metod va tajrirabar, laborator psixologik metodlar kabilar.

Rus tilshunosligida diskurs va uning tahlili borasida Karasikning tadqiqotlari ahamiyatli. Jumladan, olimning "Til doirasi: shaxs, konseptlar va diskurs" asarida diskursga real muloqot vaziyatidagi matn sifatida sotsiologik va pragmalingvistik tiplarini ajratadi. Shuningdek, diskursiv personologiya kabi masalalar borasida qator ilmiy-nazariy jihatdan asosli maqolalar e'lon qilgan.

Amerikalik mashhur diskursologlardan biri Debora Shifrin (1951-2017) hisoblanadi. D.Shifrinning ilmiy izlanishlari diskursiv tahlil, sotsiolingvistika masalalarini qamrab oladi. Diskursiv markerlarning sintaktik pozitsiyasi, Grammatik xususiyatlari, fonetik jihatlari bo'yicha tadqiqotlari mashhur.

Diskurs kategoriyasi kommunikativ lingvistika va ko'plab ijtimoiy fanlarda keng qo'llanishda bo'lgan termin hisoblanadi va Debora Shifrin bu tushunchaga 3 xil yondashuv mavjudligini ko'rsatadi:

1. Formal-struktur yondashuv nuqtai nazaridan diskurs ma'no jihatdan bog'langan 2 yoki undan ortiq gap .
2. Funktsional yondashuvga ko'ra diskurs bu tildan foydalanish.
3. Formal-funksional-situatsion yondashuv.

Aslida, diskurs bu nutq, matn, dialog atamalarini umumlashtiruvchi termindir.

Diskursning mazmuniy jihatlari: komponentlari va kategoriyalari qatoriga propozitsiya, referensiya, eksplikatura, inferensiya, implikatura, relevantnost, presuppozitsiya, tema, rema, chiziqlilik, kontekst kabilar kiradi.

T.G.Skrebsovaning «Lingvistika diskursa: struktura, semantika, pragmatika» nomli ma'ruzalar kursi 4 bobdan iborat. Mazkur ishda diskurs va diskursiv tadqiqotlarning mazmun-mohiyati, diskursiv tahlil birliklari, maishiy suhbat,

diskurs semantikasi, diskurs mazmuniy mundarijasining obyektivligi va subyektivligi, intertekstuallik, siyosiy diskursning kognitiv tahlili, diskurs tahlilioga pragmatic yondasuv, nutqiy akt, kommunikativ strategiya va taktika kabi zamonaviy tilshunoslikdagi muhim masalalar tahlil qilinadi va nazariy asoslanadi. Diskurs favqulodda keng va serqirra tushuncha bo'lgani bois har qanday tadqiqotda chegaralanishni talab qiladi, deb yozadi Skrebsova.

Diskursning asosiy tiplari sifatida Skrebsova dastlab maishiy va institutsional (rasmiy) diskursni qayd etadi. Maishiy diskurs alohida odamlarning individ sifatidagi muloqotni, institutsional diskurs aniq ijtimoiy yoki kasbiy guruh, jamoatchilik institutlari, rol-li-maqomli munosabatlarning tashuvchisi sifatida ishtirok etadi. Bu qatorda diniy, siyosiy, pedagogic, tibbiy, ish, sport, ilmiy kabi diskurs turlari qayd etiladi. Lekin bu ajratilishlar absolyut emas.

Skrebsova tasnifiga ko'ra:

- 1). Qo'llanish doirasiga ko'ra: siyosiy, harbiy, diniy, tibbiy, yuridik...
- 2). Qatnashuvchilar va ularning g'oyaviy ustanovkasiga ko'ra: kasaba uyushmalari, o'nglar, so'llar, feministik diskurs
- 3). Kommunikativ maqsad: polemicheskiy, didaktik, manipulyativ, targ'ibot-tashviqot kabi.

Diskursning xilma-xilligi nutqiy janrlar tushunchasi bilan bog'liq holda izohlanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, diskursiv tahlil zamonaviy tahli yo'nalishi bo'lib, uning tadqiqot obyekti real dunyodagi tabiiy sharoitda og'zaki va yozma nutq shakllari hisoblanadi. Bunda nutqiy xabarlardan foydalaniladi. Sun'iy yaratilgan materiallardan foydalanilmaydi.

Tadqiqot predmeti esa nutqiy kommunikatsiyaning mazmuniy tomoni hisoblanadi. Diskurs tahlili nafaqat muloqotning verbal komponentlarini, balki kommunikantlarning dunyo haqida bilimi, qarashlari, maqsad qo'yishi, ijtimoiy tajribasi, turmush tarzi kabi omillarni ham ko'rib chiqadi. Chunki bularning barchasi matnni yaratish va idrok etishga ta'sir qiladi. Formal tilshunoslikdan

farqli ravishda ijtimoiy tomonlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kommunikantlar nafaqat muayyan tilde so'zlashuvchilar, balki ma'lum ijtimoiy guruh a'zosi, madaniyat egasi va hokazo hisoblanadi.

Diskurs tahlilining o'ziga xosligi fanda qabul qilingan tadqiqot mantig'ining qizman buzilishidir. Bunda induktiv metoddan foydalaniladi, ya'ni tahlida misoldan nazariyaga qarab boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А. Нурмонов Танланган асарлар. - Тошкент: Академнашр, 2012. .
2. Д Қуронов Мутолаа ва идрок машқлари. - Тошкент : Академнашр, 2013.
3. Л. Раупова Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи:. - Тошкент, 2012.
4. М.Л. Макаров Основы теории дискурса. – М.: ИТДКГ «Гнозис», 2003.
5. Н Қозоқова Бадий матн прагматикаси. - Наманган : Аржуманд медиа, 2022.
6. Скребцова Т. Г. Лингвистика дискурса: структура семантика, прагматика. Курс лекций. — М.: Издательский Дом ЯСК, 2020. — С.6.
7. Ш. Сафаров Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. - Тошкент : Себзор, 2008. .
8. Э. Азнаурова Прагматика художественного слова. - Ташкент, Фан, 1988.